



SUG'ORILADIGAN YERLARDA OZUQABOP VA HOSILDOR ARPA NAVLARINI TANLASH

R.B.Tuyg'unov

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

G.S.G'aybullayev

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10202432>

Annotasiya: Arpaning jahon kolleksiyasi nav namunalarini qimmatli xo'jalik - biologik xususiyatlarini o'rganish, turli ekologik-geografik guruhlariga mansub bo'lgan arpa navlarining yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalarni ajratib olish va seleksiya uchun dastlabki ashyo yaratish va shular asosida intensiv tipdagi arpa navlarini yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: arpa, nav, boshqoli don, sug'oriladigan yer, mahsuldorlik, hosil.

O'zbekiston mustaqillik yillarida boshqoli don ekinlarining hosildorligi 1991 yildagi o'rtacha 17,9 s/ga dan 2006 yili 41,7 s/ga gacha, yalpi hosil esa 6,5 martaga oshdi. Boshqoli don ekinlarining yangi navlarini yaratish, birlamchi urug'chiligini olib borish, agrotexnik tadbirlarning tuproq va iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda belgilangan muddat va me'yorlarda o'tkazilishi, ekinlarni erta yetilishiga va yuqori hosil olishga zamin bo'lmoqda.

G'allachilikda mintaqaviy agrotexnika asosida ish yuritish, ya'ni har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan navlarni tanlash va yaratish, ularni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish, yaratilayotgan navlar yuqori hosilli bo'lishi bilan birga non mahsulotlari tayyorlash uchun yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan, ayniqsa har bir hududning mahalliy sharoitidan kelib chiqib ekinlarni joylashtirishga, bunda yangi navlarni mahalliyashtirish va ularni asosiy maydonlarga ekilishiga erishish o'ta muhim hisoblanadi.

Zarafshon vohasining sug'oriladigan yerlarida arpaning jahon kolleksiyasi nav namunalarini qimmatli xo'jalik - biologik xususiyatlarini o'rganish, turli ekologik-geografik guruhlariga mansub bo'lgan arpa navlarining yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalarni ajratib olish va seleksiya uchun dastlabki ashyo yaratish.

Tadqiqotlar olib borish davomida quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirilgan:

- Arpaning jahon kolleksiyasi nav namunalaridan qimmatli xo'jalik-biologik xususiyatlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qilgan nav namunalarini tanlab olish.





-Ajrati b olingan nav va nav namunalari o'rtasida chatishtirishlar o'tkazilib, duragaylar yaratish. Duragaylarda asosiy belgi va xususiyatlarning irsiylanish darajasini aniqlash hamda tanlashni amalga oshirish, muvofiq kelgan duragay liniyalardan seleksiyada foydalanish.

- Arpaning tashqi muhit noqulay sharoitlariga (issiqlikka, qishga, kasalliklarga) chidamli bo'lgan boshlang'ich manbalari yaratish.

- Arpaning serhosil ertapishar yotib qolishga chidamli nav namunalari ni tanlash.

- Arpa nav namunalarining don sifat ko'rsatkichlarini baholash va don sifati yuqori bo'lgan nav namunalari ni boshlang'ich manba sifatida ajratib olish.

- Arpaning o'sishi va rivojlanishi, biometrik va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida ertapishar tizmalari ni tanlash;

Donli ekinlar ichida eng ahamiyatli si bug'doy hisoblansa, undan keying o'rinni esa arpa ekini egallaydi. O'simlikning biologik xususiyatlari, tezpisharligi shimoliy mintaqalarda ham ekish mumkinligi, qurg'oqchilikka va sho'rga nisbatan chidamliligiga qarab yuqori baholanadi. Shuning uchun arpani ekologik qiyin bo'lgan sharoitlarda ham ekishga tavsiya etiladi. Bundan tashqari arpa o'zining biologik xususiyatiga almashlab ekishda muhim o'rin tutadi. U ortiqcha namni tejashi va vegetatsiya davrining qisqaligi bilan ajralib turadi. Chunki O'zbekiston iqlim sharoitida kuzgi donli ekinlardan keyin, takroriy ekin ekish va shu bilan yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga imkon yetarli darajada. Oziq-ovqat sanoati va chorvachilikda bu ekin doniga talab katta.

Arpa (*Hordeum Vulgare*) dunyo bo'ylab to'rtinchi yirik don ekinidir va u genetik va fiziologik tadqiqotlar uchun ajoyib namunadir.

Bundan tashqari, bu noyob genetik moslashuv va biotik stressga chidamlilik boshqa don ekinlarini yaxshilashga imkon beradi.

Arpa yetakchi qishloq xo'jaligi ekinlaridan biridir. Rossiya Federasiyasi arpa yetishtiruvchi eng yirik davlatdir.

2020 yilda jahonda arpa yetishtirish 157 million tonnani tashkil etdi, bunda Rossiya jahon jami mahsulotining 13 foizini ishlab chiqaradi. Ispaniya, Germaniya, Kanada va Fransiya asosiy ishlab chiqaruvchilar edi (1.1 – jadval).

1.1-jadval

Dunyo bo'yicha arpa doni ishlab chiqarish 2021-2022 yil





		Mamlakatlar	Ishlab chiqarish (tonna)	Bir kishi uchun ishlab chiqarish (kg)	Maydoni (gektar)	Hosildorlik (kg/gektar)
1		Rossiya	20,489,088	139.498	8,536,675	2,400.1
2		Fransiya	13,565,420	201.575	1,944,190	6,977.4
3		Germaniya	11,591,500	140.094	1,708,800	6,783.4
4		Kanada	10,382,600	279	2,727,500	3,806.6
5		Ukraina	8,916,780	210.979	2,609,200	3,417.4
6		Avstraliya	8,818,946	352.062	4,436,588	1,987.8
7		Ispaniya	7,744,150	165.972	2,693,510	2,875.1
8		Turkiya	7,600,000	94.047	2,860,889	2,656.5
9		Buyuk Britaniya	6,510,000	98.576	1,138,000	5,720.6
10		Argentina	5,117,247	115.009	1,256,360	4,073.1
61		O'zbekiston	133,496	4.088	91,909	1,452.5

Dunyo bo'ylab 2021 yilda 158 979 610 tonna arpa ishlab chiqariladi. Rossiya Federatsiyasi yiliga 20 489 088 tonna arpa ishlab chiqarish bilan dunyodagi eng yirik arpa ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Yiliga 13 565 420 tonna ishlab chiqarish bilan Fransiya ikkinchi o'rinda turadi. Yiliga 11 591 500 tonna ishlab chiqarish bilan Germaniya arpa yetishtirish bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Yiliga 133,496 tonna ishlab chiqarish bilan O'zbekiston 61-o'rinda. Arpa yetishtirish bo'yicha eng kuchli o'nlikka o'z navbatida Rossiyadan tashqari Germaniya, Fransiya, Ukraina, Avstraliya, Kanada, Ispaniya, Turkiya, Angliya kiradi. Ushbu davlatlar jahondagi umumiy arpa yetishtirishning 67.8 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston 91 909 gektar maydonga 133,496 tonna bilan 61-o'rinni egallab, kishi boshiga 4,088 kg ni, bir gektar maydonga 1452,5 kg yoki 14,525 sentnerni tashkil etadi. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarda 35-40 s/ga hosil beradi. Ilg'or xo'jaliklarda, sug'oriladigan yerlarda arpa hosili 65-70 s/ga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saydalimovich, G. G., Abduvakhobovich, B. M., & Bolibekovich, T. R. (2020). Wheat Breeding Research In The Zarafshan Oasis Of The Republic Of Uzbekistan. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 2(10), 27-37.





2. Tashkentboeva, F., & Gaybullaev, G. (2021). Topic: Effect Of Supplementary Feeding With Mineral Fertilizers And Micronutrients On Leaves And Stems On The Productivity Of Jasmina Wheat Genus. *European Journal of Agricultural and Rural Education*, 2(11), 6-8.
3. Bolibekovich, T. R., & Igamovich, U. Z. (2023). Results of the Evaluation of Samples of the World Collection for Creation of New Varieties of Barley in Irrigated Lands. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 13, 1-4.
4. G'aybullayev, G., Hazratqulov, M., & Abdurashidova, M. F. (2022). XO'RAKI KO'K NO'XAT NAV VA NA'MUNALARIDAN ENG YAXSHI BOSHLANG'ICH MATERIALNI SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA TANLASH. *Journal of new century innovations*, 10(4), 70-74.
5. Абруева, Ф. Б. Қ., Кулдошов, Б. Х., & Тилавов, Х. (2022). СОЯ ДОНИДАН СУТ ВА СУТ МАҲСУЛОТЛАРИ ОЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Academic research in educational sciences, (Conference)*, 342-345.
6. Остонакулов, Т. Э., Тилавов, Х. М., & Махмудов, Р. З. (2021). ТУРЛИ ЎЎЎИТЛАР ШАРОИТЛАРИДА ҚОВУН ЁЗГИ НАВЛАРИНИ ЎЎСТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ. *Инновацион технологиялар, (3 (43))*, 65-67.
7. Mahammadiyev, J., Yoqubov, M., & Eshonqulova, A. (2022). QISHLOQ XO'JALIGI PESTITSIDLARIDA ISHLATILADIGAN GERBITSID VA INSEKTITSIDLARNI SAQLASHDA KAPSULALASHNING AHAMIYATI. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 2(6), 277-279.
8. Tilavov, X. M., Mixliyev, T. R., & Devletshayeva, E. S. (2022). DON EKINLARINI SAQLASHDA TOZALASH VA SARALASH MASHINALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. *Academic research in educational sciences, (Conference)*, 469-474.
9. Мухаммадиев Ж. Н., Абдусаломов, Ж. Т., Насимов, Х. М., Курбонова, Д. А., & Холмурзаев, Ф. Ф. (2021). Важность Микрокапсул Для Скрытия Вкусов И Запахов Веществ. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(6), 336-338.

